

NAMANGAN VILOYATIDA SANOAT SOHASINING RIVOJLANISHI

Iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlash, aholining turmush darajasini oshirish va samarali bandligini ta'minlashda sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishni har tomonlama rivojlanishi muhim masalalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, hozirgi kunda rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishni jadal rivojlantirishni eng muhim vazifalardan biri sifatida qo'yishmoqda.

Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish jamiyatda sodir bo'layotgan deyarli barcha ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga ta'sir ko'rsatadi, bu esa mazkur masalaning qanchalik muhim va ahamiyatli ekanligini ko'rsatib beradi.

2017 yil yanvar-noyabrda sanoat mahsuloti hajmi 3513,9 mlrd. so'mni yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,0 foizni tashkil etdi.

Hisobot davrida 2473,4 mlrd. so'mlik iste'mol tovarlari ishlab chiqarilib, 2016 yil yanvar-noyabrga nisbatan 104,5 foizni tashkil etdi. Jumladan, 1028,8 mlrd. so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari, 20,6 mlrd. so'mlik aroq-vino mahsulotlari va pivo, 1424,1 mlrd. so'mlik nooziq-ovqat mollari (2016 yil yanvar-noyabrga nisbatan mos ravishda 100,7 foiz, 107,7 foiz va 107,4 foiz) ishlab chiqarildi.

2017 yilning 1 noyabr holatiga kichik biznes sub'ektlari tomonidan sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 2440,1 mlrd. so'mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 69,4 foizi) yoki 2016 yilning yanvar-noyabriga nisbatan 105,6 foizga o'sdi.